

## DIPLOMATIK DAXLSIZLIK HUQUQI VA UNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQDAGI AHAMIYATI.

**Rayimova Munisa Nozim qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchisi.*

**Eshmanov Sardor**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti*

*2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diplomatik daxlsizlik huquqining tarixiy ildizlari, uning xalqaro huquqdagi shakllanishi hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Diplomantik vakillarning huquqiy maqomi, ularga taqdim etilgan daxlsizlik kafolatlari va bu huquqning xalqaro diplomatik aloqalarni barqarorlashtirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, diplomatik daxlsizlikning suiiste‘mol qilinishi bilan bog‘liq holatlar va ularni tartibga soluvchi xalqaro mexanizmlar o‘rganiladi. Mazkur tadqiqot orqali diplomatik daxlsizlik prinsiplari zamonaviy xalqaro huquq amaliyotida qanday qo‘llanilayotgani, shuningdek, xalqaro xavfsizlik va adolat tamoyillari bilan qanday muvofiqlashtirilayotgani tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** diplomatik daxlsizlik, xalqaro huquq, diplomatik vakolatxona, Vena konvensiyasi, xalqaro munosabatlar, huquqiy maqom, diplomatik imtiyozlar.

### KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro huquqda ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyillardan biri sifatida diplomatik immunitet instituti shakllangan bo‘lib, u diplomatik vakillarning vakolatlarini erkin, xavfsiz va mustaqil tarzda amalga oshirishiga xizmat qiladi. Diplomantik himoya – bu davlatning tashqi munosabatlari organi orqali chet elda bo‘lgan o‘z fuqarosiga uning huquqlari poymol bo‘lgan yoki poymol qilinishga urinish bo‘lganida ko‘rsatiladigan himoyadir. Boshqa davlat himoyasining uning chet elliklariga nisbatan bo‘lgan majburiyatlariga xilof ravishda poymol qilingan barcha inson huquqlari diplomatik himoya predmetidir<sup>1</sup>. Tarixan diplomatik aloqalar xavfsizlik va ishonchga asoslangan bo‘lishi kerakligi

<sup>1</sup> Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.. Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. – Toshkent: Adolat, 2007. – 185 b.

e'tirof etilgan va aynan shu asosda davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalarni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi normativ asoslar shakllangan.

Diplomatik immunitet institutining asosiy manbasi – 1961-yilda qabul qilingan Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi bo'lib, u bugungi kunda 190 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan va universal xalqaro huquqiy hujjat sifatida e'tirof etiladi.<sup>2</sup>Mazkur konvensiyada diplomatik vakillar, ularning oila a'zolari hamda diplomatik missiya xodimlarining huquqiy maqomi, daxlsizligi, yurisdiksiyadan ozod qilinishi va boshqa imtiyozlar batafsil belgilangan. Shuningdek, xalqaro odat huquqi ham diplomatik immunitet tamoyillarini mustahkamlovchi manba sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda bu institut xalqaro huquqiy amaliyotda chuqur ildiz otgan bo'lib, suveren tenglik va davlatlararo ishonchni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro huquq amaliyoti diplomatik immunitet institutiga oid yangi muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Jumladan, ayrim hollarda diplomatik imtiyoz va erkinliklardan noqonuniy yoki axloqiy me'yorlarga zid tarzda foydalanish holatlari kuzatilmoqda<sup>3</sup>. Bu esa ushbu institutning zamonaviy xalqaro tartibda qayta ko'rib chiqilishi zaruratini tug'diradi. Diplomatik immunitet va inson huquqlari o'rtasidagi muvozanat, xalqaro jinoyatlarga daxldorlik holatlarida javobgarlikdan ozod etilish ehtimoli kabi masalalar bugungi ilmiy-amaliy tahlillarning diqqat markazida turibdi.

Mazkur tahliliy ishda diplomatik immunitetning xalqaro-huquqiy asoslari, imtiyozlarning ko'lami, zamonaviy xalqaro huquqda bu institutning ahamiyati, amaliy muammolar va xalqaro sud-huquq amaliyotidagi yondashuvlar har tomonlama o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – diplomatik immunitet institutining zamonaviy xalqaro huquqdagi roli va amaliyotini tahlil qilish, xalqaro hamjamiyatdagi bahsli jihatlarni aniqlash hamda bu boradagi huquqiy takliflarni ilgari surishdan iborat.

## ASOSIY QISM

### I. Diplomatik immunitetning huquqiy asosi

Diplomatik immunitet xalqaro huquqda tarixan shakllangan va davlatlararo diplomatik munosabatlarning uzviy tarkibiy qismiga aylangan institut bo'lib, u vakolatli shaxslarning vakolatlarini hech qanday to'siqsiz amalga oshirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur institutning asosiy huquqiy manbasi 1961-yil 18-aprelda qabul qilingan va 1964-yil 24-aprelda kuchga kirgan Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi hisoblanadi. Ushbu konvensiya bugungi kunda 193 dan ortiq davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, u diplomatik missiyalarning

<sup>2</sup> Yuldasheva G. Diplomatik va konsullik huquq. Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d. Muhammadjonov O.Z.– T.: TDYI nashriyoti, 2009. 104 bet.

<sup>3</sup> H.R. 3841, 95th Cong., 1st Sess. (1977), reprinted in LEGISLATIVE HISTORY OF THE DIPLOMATIC RELATIONS ACT, supra note 2, at 661

maqomi, vakillarning huquqiy holati, diplomatik vakolatxonalar va ularning mulkiga nisbatan daxlsizlik, shuningdek, diplomatik xodimlarning jinoiy, fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyadan ozod bo'lishi kabi masalalarni mustahkamlaydi.<sup>4</sup> Vena konvensiyasining 22-moddasida diplomatik vakolatxona binosining daxlsizligi kafolatlanadi: "1. Missiya binolari daxlsizdir. Qabul qiluvchi davlatning agentlari ularga kirishi mumkin emas, faqat vakolatxona rahbarining roziligisiz",<sup>5</sup> 29-moddasida esa diplomatik agent shaxsan daxlsiz deb e'tirof etiladi; u hibsga olinmasligi, ushlab turilmasligi, unga nisbatan hech qanday kuch ishlatilmasligi nazarda tutiladi. Konvensiyaning 31-moddasi esa diplomatik vakillarning sud yurisdiksiyasidan ozodligini belgilaydi, bunda faqatgina ularning shaxsiy, ya'ni xizmat doirasiga aloqador bo'lmagan fuqarolik munosabatlaridagi javobgarlik istisno tariqasida ko'zda tutiladi. Ushbu normalar xalqaro huquqda "funktional zarurat" prinsipiga asoslanadi, ya'ni diplomatik faoliyat erkinligi – davlatlar o'rtasida tinchlik, ishonch va suveren tenglikni saqlab qolish vositasi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, diplomatik immunitet faqat konvensiyaviy huquq bilan emas, balki xalqaro odat huquqi bilan ham mustahkamlangan. Xalqaro sudlar, xususan Xalqaro sud (ICJ) tomonidan bir necha bor e'tirof etilganidek, diplomatik daxlsizlikka oid normalar hatto konvensiyani ratifikatsiya qilmagan davlatlar uchun ham majburiy hisoblanadi. 2002-yilda ko'rilgan DR Kongo va Belgiya o'rtasidagi "Arrest Warrant" ishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Unda sud Belgiya tomonidan DR Kongoning tashqi ishlar vaziriga qarshi chiqarilgan hibsga olish orderini xalqaro huquq normalariga zid, deb top<sup>6</sup>di. Bu holat xalqaro odat huquqi diplomatik maqomni har tomonlama himoya qilishda qanday darajada kuchga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro odat huquqida shakllangan asosiy tamoyillar – diplomatik agentning shaxsiy daxlsizligi, xizmat doirasida bajarilgan harakatlar uchun javobgarlikdan ozodlik, diplomatik mulkning daxlsizligi – bu institutning yadro elementlari bo'lib, ular amaliyotda muntazam ravishda e'tirof etilib kelinmoqda.

Diplomatik immunitetning huquqiy asoslari faqat xalqaro konvensiyalar va odat huquqi bilan cheklanmaydi. Ularning davlatlar milliy qonunchiligidagi aks ettirilishi ham ushbu institutning amaliyotda qanday ishlashini belgilaydi. Masalan, AQShda 1978-yilda qabul qilingan Diplomatic Relations Act, Buyuk Britaniyada esa 1964-yildagi Diplomatic Privileges Act orqali Vena konvensiyasining asosiy normalari ichki qonunchilikka integratsiya qilingan<sup>7</sup>. Shu bilan birga, ayrim davlatlarda milliy qonunchilik diplomatik immunitetga nisbatan aniq chegaralarni ham belgilaydi. Jumladan, jinoyat sodir etilgan taqdirda yoki diplomatik maqomdan tashqari faoliyat

<sup>4</sup> The Growth of Purpose in the Law of Diplomatic Immunity, The American Journal of International Law, Vol. 53, No. 3, 1959

<sup>5</sup> [https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9\\_1\\_1961.pdf](https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf)

<sup>6</sup> <https://www.icj-cij.org/case/121>

<sup>7</sup> Reforming the Laws and Practice of Diplomatic Immunity, Michigan Journal of Law Reform, 1982.

olib borilgan holatlarda, ayrim yurisdiksiyalar cheklangan darajadagi javobgarlikni belgilash mexanizmlarini ishlab chiqqan. BMTning 2021-yildagi ma'lumotiga ko'ra, 15 dan ortiq davlat o'z milliy qonunchiligida diplomatik maqomdan suiiste'mol qilish holatlariga nisbatan aniq nazorat choralari joriy qilgan. Bu holatlar xalqaro huquq normalari bilan milliy suverenitet o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga bo'lgan urinish sifatida baholanadi.

### III. Diplomatik immunitetning turlari va ko'lami

Diplomatik immunitetning doirasi Vena konvensiyasining 31-moddasida batafsil belgilangan. Ushbu norma asosida diplomatik agentlar qabul qiluvchi davlatning jinoiy yurisdiksiyasidan to'liq ozod qilinadi, shu bilan birga ularning fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyadan ham ozodligi kafolatlanadi. Biroq bu erkinlik mutlaq emas, konvensiyada alohida holatlar sanab o'tilgan. Xususan, 31-moddaning birinchi bandida quyidagicha ko'rsatiladi:

*“Diplomatik agent mezbon davlatning jinoiy yurisdiksiyasidan ozod bo'ladi. Shuningdek, u fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyadan ozod bo'ladi, quyidagi istisno hollar bundan mustasno:*

*(a) agar da'vo uning shaxsiy mulkiga oid bo'lsa va bu mulk xizmat doirasidan tashqarida joylashgan bo'lsa;*

*(b) agar u meros ishida shaxsiy ravishda ishtirok etayotgan bo'lsa (masalan, vasiy yoki voris sifatida);*

*(c) agar u xizmat doirasidan tashqari kasbiy yoki tijorat faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa.”<sup>8</sup>*

Bu norma diplomatik vakilning faqat xizmat doirasidagi faoliyatiga doir yurisdiksiya immuniteti mavjudligini anglatadi. Agar u xizmat doirasidan tashqari harakat qilgan bo'lsa, qabul qiluvchi davlatda unga nisbatan da'vo qo'zg'atilishi mumkin. Bu mezonlar xalqaro amaliyotda “limited functional immunity” sifatida tavsiflanadi. Diplomatik agentlar, shuningdek, guvohlik berishga majbur emaslar (31-modda, 2-qism). Bu esa ularning faoliyatiga aralashuvni cheklash maqsadida belgilangan bo'lib, ularning daxlsizligini nafaqat jazolash, balki istalgan tergov yoki sud harakatlaridan ham himoya qiladi.

31-moddaning 3-bandida ijro harakatlariga oid muhim cheklovlar ham belgilangan:

*“Diplomatik agentga nisbatan hech qanday majburiy ijro chorasi qo'llanilmaydi, faqat yuqorida (a), (b) va (c) bandlarida keltirilgan holatlardan tashqari va bu choralar uning shaxsi yoki yashash joyi daxlsizligiga ziyon yetkazmasligi sharti bilan.”<sup>9</sup>*

<sup>8</sup> <https://lex.uz/docs/2647563>

<sup>9</sup> Vena konvensiyasi diplomatik munosabatlar to'g'risida (1961-yil 18-aprel) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.uz. <https://lex.uz/docs/2647563>

Bu degani, agar diplomat yuqoridagi uchta istisnoga mos keluvchi da'volarda ishtirok etsa ham, unga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki uyi, mol-mulkiga bostirib kirish mumkin emas. Bu xalqaro huquqda "mutlaq shaxsiy daxlsizlik" printsipli sifatida qaraladi.

31-moddadan kelib chiqadigan yana bir muhim tamoyil – bu diplomatik agent qabul qiluvchi davlat yurisdiksiyasidan ozod bo'lsa-da, o'z vatani – yuboruvchi davlat yurisdiksiyasiga bo'ysunishda davom etadi (31-modda, 4-band). Ya'ni, agar diplomat qonunbuzarlik sodir etsa, u mezbon davlat emas, aynan yuboruvchi davlat tomonidan javobgarlikka tortilishi lozim. Bu xalqaro amaliyotda "territorial jurisdiction vs. national jurisdiction" muvozanatini saqlaydi.

32-moddada esa immunitetdan voz kechish mexanizmi yoritilgan. Immunitetdan voz kechish faqat yuboruvchi davlat tomonidan amalga oshiriladi va bu faqat ochiq (express) tarzda bo'lishi shart (32-modda, 1–2-band). Diplomantik agent o'zi sud jarayonini boshlagan taqdirda, unga nisbatan ayni ish bo'yicha qarshi da'vo qo'zg'atilsa, u bu da'vo bo'yicha immunitetini da'vo qilolmaydi. Bu "counterclaim rule" deb yuritiladi. Shuningdek, fuqarolik yoki ma'muriy yurisdiksiyaga nisbatan immunitetdan voz kechish, avtomatik ravishda ijrodan voz kechish deb qaralmaydi — ijro uchun alohida voz kechish talab qilinadi (32-modda, 4-band).<sup>10</sup>

Mazkur huquqiy me'yorlar xalqaro huquqda diplomatik daxlsizlik va vakolat erkinligining huquqiy chegaralarini aniq belgilab beradi. Ular orqali diplomatik faoliyatga aralashmaslik tamoyili saqlab qolinadi, biroq shaxsiy faoliyat yoki qonunbuzarlik holatlarida muvozanatli huquqiy javobgarlik mexanizmi yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu me'yorlar xalqaro hamjamiyatda diplomatik erkinlikning suiiste'mol qilinishining oldini olishga qaratilgan muhim kafolatlar majmuidir.

#### IV. Diplomantik immunitetga oid zamonaviy muammolar va tanqidlar

Zamonaviy xalqaro huquqda diplomatik immunitet instituti xalqaro muloqot va barqarorlikni ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, uning suiiste'mol qilinishi masalasi tobora jiddiy muhokamalar mavjud. So'nggi yillarda bir qator holatlarda diplomatik maqom shaxsiy manfaatlar yoki jinoyatlardan qochish vositasiga aylangan hollari qayd etilgan. Xususan, 2010–2020-yillar oralig'ida AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Fransiyada diplomatik maqomga ega 400 dan ortiq shaxsga nisbatan yo'l harakati, iqtisodiy firibgarlik va jinsiy zo'ravonlik kabi shikoyatlar tushgan, biroq ulardan 90 foizi sudga yetib bormagan, sababi ular diplomatik immunitet bilan himoyalangan<sup>11</sup>.

<sup>10</sup> Higgins, R. (1985). The Abuse of Diplomatic Privileges and Immunities: Recent United Kingdom Experience. *The American Journal of International Law*, 79(3), 641–651.

<sup>11</sup> Toshpulatov, Sherzod, and Nigina Khudayberganova. "Diplomatic Immunity under International Law: Legal Regulation and Current Challenges." *Social Science Research Network*, November 10, 2021. <https://ssrn.com/abstract=3950704>.

Diplomatik immunitetning inson huquqlari bilan to‘qnashadigan holatlari ham tobora dolzarb tus olmoqda. Ayrim diplomatlar o‘z maqomidan foydalanib uy xizmatkorlari, ayollar yoki bolalarga nisbatan ekspluatatsiya, majburiy mehnat yoki zo‘ravonlik harakatlarini sodir etgan bo‘lsa-da, ushbu holatlar jinoiy javobgarlik choralarisiz qolmoqda. Masalan, 2015-yilda Hindiston vakili Devyani Khobragade AQShda uy xizmatkorini zo‘rlik bilan ishlatgani uchun ayblangan bo‘lsa-da, u diplomatik maqomi tufayli suddan ozod bo‘lgan<sup>12</sup>. Bu holat xalqaro huquqda diplomatik maqom inson huquqlari kafolatlaridan ustun turishi mumkinligi haqidagi xavotirlarni kuchaytirdi.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti amaliyotida ham bu muammo jiddiy tus olgan. BMTning tinchlikparvar missiyalari doirasida xizmat qilgan rasmiylar tomonidan 2007–2023-yillar oralig‘ida sodir etilgan 342 ta jiddiy jinoyat holati qayd etilgan bo‘lsa-da, faqat 11 tasi tegishli davlatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan<sup>13</sup>. Bundan tashqari, Associated Press agentligining ma‘lumotiga ko‘ra, so‘nggi 12 yillikda BMT xodimlariga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik va ekspluatatsiya bo‘yicha 2000 dan ortiq ayblov bildirilgan, biroq huquqiy javobgarlik deyarli qo‘llanilmagan. Ushbu holatlar xalqaro tashkilotlar doirasida ham diplomatik daxlsizlik institutining suiiste‘mol qilinish holatlarini cheklash zarurligini ochiq ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro jinoyatlar kontekstida – xususan, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari yoki genotsid holatlarida – diplomatik immunitetning amalda mutlaq yurisdiksiyadan ozodlik sifatida ishlatilishi xalqaro adolat tamoyillari bilan ziddiyatga kirishmoqda. Xalqaro jinoiy sud (XJS) ham bu borada davlat rahbarlari va yuqori martabali amaldorlarning funktsional immunitetiga cheklov kiritish zarurligini taklif qilmoqda. AQSh va XJS o‘rtasida yuzaga kelgan “USA v. ICC” ziddiyati bunga yorqin misoldir, unda AQSh ayrim diplomatik vakillarning immunitetini tan olmaslik siyosatini e‘lon qilgan<sup>14</sup>. Shu munosabat bilan xalqaro ekspertlar diplomatik immunitet institutining xalqaro jinoyat yurisdiksiyasi doirasida qayta ko‘rib chiqilishini zarur deb bilishmoqda.

#### V. Sud amaliyoti va davlatlar tajribasi

Diplomatik immunitet institutining xalqaro huquqdagi talqini nazariy asoslar bilan cheklanmay, sud amaliyoti orqali ham shakllanib bordi. Bir qator milliy va xalqaro sudlar ushbu institutga oid fundamental yondashuvlarni belgilab bergan bo‘lib, ularning qarorlari diplomatik daxlsizlik doirasini aniqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

AQShda ko‘rilgan “United States v. Al Sharaf” ishi bu borada ahamiyatli misol sanaladi. Ushbu ishda Quvayt elchixonasining ma‘muriy xodimi Al Sharafga nisbatan AQShda xizmatkoriga nisbatan majburiy mehnat va zo‘ravonlik ishlatganlik ayblovi

<sup>12</sup> Repercussions of the Abuse of Diplomatic Immunity, SSRN, 2024.

<sup>13</sup> <https://press.un.org/en/2023/gal3689.doc.htm>

<sup>14</sup> The Measures against the International Criminal Court: USA v. ICC, Journal of International Law, 2019.

bilan sud ishi ochilgan. Al Sharaf o‘zining diplomatik maqomini asos qilib ko‘rsatgan bo‘lsa-da, sud uni Vena konvensiyasining 31-moddasida ko‘rsatilgan xizmat doirasidan tashqari faoliyat bilan shug‘ullangani uchun fuqarolik yurisdiksiyasidan to‘liq ozod deb hisoblamadi. Bu ish AQSh sud tizimining diplomatik immunitetni avtomatik himoya vositasi sifatida <sup>15</sup>emas, balki xizmatga aloqadorlik prinsipiga asoslab qo‘llashini ko‘rsatadi.

Xalqaro sud amaliyotida eng muhim ishlaridan biri bu — Demokratik Kongo Respublikasi v. Belgiya (Arrest Warrant Case, ICJ 2002) ishidir. Belgiya hukumati Kongo tashqi ishlar vaziriga nisbatan xalqaro jinoyatlar (genotsid va qiynoq) bo‘yicha hibsga olish orderi chiqargan edi. Kongo bu holatni xalqaro huquqning <sup>16</sup>diplomatik immunitet tamoyillariga zid deb topib, Xalqaro sudga murojaat qildi. Xalqaro sud mazkur orderni chiqarishni xalqaro odat huquqining buzilishi deb baholadi va amaldorlarning xizmat davridagi diplomatik maqomi ularga nisbatan boshqa davlat sudlari yurisdiksiyasini taqiqlashini tasdiqladi<sup>2</sup>. Bu ish diplomatik immunitet hatto og‘ir xalqaro jinoyatlar uchun ham amal qilishi mumkinligini yoritib berdi, ammo shu bilan birga xalqaro jinoiy yurisdiksiya va davlat suvereniteti o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni ham ochib berdi.

Milliy sud amaliyotida esa turli davlatlarda immunitet masalasiga nisbatan yondashuv farqlanadi. Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda sudlar Vena konvensiyasining tamoyillarini qat‘iy qo‘llagan holda, faqat xizmat doirasidagi harakatlarga immunitet tatbiq etadi. Masalan, 2010-yilda Londonda Livan elchixonasining moliyaviy bo‘lim boshlig‘i uy xizmatkoriga ish haqi to‘lamagani uchun fuqarolik sudida javobgar deb topilgan. Sud da‘vogarni xizmat doirasidan tashqaridagi xatti-harakat uchun javobgarlikka tortish mumkinligini qayd etdi. Shuningdek, 2017-yilda Niderlandiya sudlari Sudan elchixonasi xodimini bolalarni ekspluatatsiya qilganlik aybi bilan tekshirishga ruxsat bergan — bunda ham xizmat doirasidan chiqilganligi asos sifatida ko‘rsatild<sup>17</sup>i.

Davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, diplomatik immunitet xalqaro huquqda universal prinsip bo‘lsa-da, milliy yurisdiksiyalarda unga nisbatan munosabat bir xilda emas. Ayrim sudlar inson huquqlari buzilishi yoki og‘ir jinoyatlar bo‘yicha immunitetni cheklash zarurligini e‘tirof etmoqda, bu esa xalqaro huquqiy islohotlar zaruratini kuchaytiradi.

**O‘zbekistonda.** O‘zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlarning diplomatik vakillari va ularning vakolatxonalariga nisbatan daxlsizlik institutining shakllanishi

<sup>15</sup> International Law. Diplomatic Immunity. American Courts Have Jurisdiction over Real Property Claims Incident to Divorce Proceedings. Fernandez v. Fernandez, 208 Conn. 329, 545 A. 2d 1036 (1988). (1989). Harvard Law Review, 102(6), 1403–1410

<sup>16</sup> Arrest Warrant of 11 April 2000 (DRC v. Belgium), ICJ Reports 2002

<sup>17</sup> Garnett, R. (2015). STATE AND DIPLOMATIC IMMUNITY AND EMPLOYMENT RIGHTS: EUROPEAN LAW TO THE RESCUE? The International and Comparative Law Quarterly, 64(4), 783–827.

xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan bo'lib, u Vena konvensiyasining asosiy tamoyillarini to'liq e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda "Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi"ga qo'shilgan bo'lib, bu orqali xalqaro diplomatik huquqning asosiy normalari milliy huquqiy tizimga muvofiq tarzda tatbiq etila boshlagan. Konstitutsiyaning 17-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga amal qiladi.<sup>18</sup> Ushbu konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, diplomatik daxlsizlik tamoyillari milliy qonun hujjatlarida mustahkam o'rin olgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasida xorijiy vakolatxonalar faoliyatining huquqiy maqomi to'g'risida"gi qonun (1994-yil 23-sentabr) xorijiy davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalari, ularning xodimlari hamda oilalari uchun shaxsiy daxlsizlik, yurisdiksiyadan ozodlik, soliqlardan ozod etilish, aloqalar erkinligi kabi asosiy immunitetlarni kafolatlaydi. Mazkur qonunning 5-moddasiga ko'ra, diplomatik vakolatxonalar binolari daxlsiz deb e'tirof etiladi va ularga davlat organlari vakolatxona roziligisiz kira olmaydi. Shuningdek, diplomatik maqomga ega shaxslar hibsga olinmaydi, ushlab turilmaydi va ularga nisbatan kuch ishlatish choralari qo'llash qat'iy man etiladi. Ushbu tartiblar Vena konvensiyasining 22–29-moddalarida nazarda tutilgan me'yorlarga to'liq mos keladi. Amaliy jihatdan, O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi diplomatik maqom berish, akkreditatsiya qilish va ularning daxlsizligini ta'minlash tartiblarini muvofiqlashtiradi. Zarurat tug'ilganda esa, xizmat doirasidan tashqari faoliyat yoki qonunbuzarlik holatlari aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi xalqaro amaliyotga muvofiq tarzda diplomatni "persona non grata" deb e'lon qilish vakolatiga ega. Bu yondashuv O'zbekistonning xalqaro huquq normalariga sodiqligini va diplomatik aloqalarga hurmat bilan yondashishini ko'rsatadi.

## VI. Xulosa

Diplomatik immunitet instituti xalqaro huquqning mustahkam asoslangan va tarixan shakllangan elementlaridan biri sifatida davlatlar o'rtasidagi diplomatik muloqotni barqaror, ishonchli va to'sqinliksiz shaklda yuritishga xizmat qilmoqda. 1961-yilgi Vena konvensiyasi ushbu institutni huquqiy jihatdan rasmiylashtirgan bo'lsa, odat huquqi va sud amaliyoti uning qo'llanilish mezonlarini yanada aniqlashtirib berdi. Immunitetning asosiy tamoyillari – shaxsiy daxlsizlik, yurisdiksiyadan ozodlik va vakolatxonalarning daxlsizligi — xalqaro tinchlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning ajralmas qismidir.

Biroq tahlillarga ko'ra, amaliyotda diplomatik maqomdan shaxsiy yoki jinoyat maqsadida foydalanish holatlari tobora ko'paymoqda. Diplomatik agentlar tomonidan sodir etilgan ayrim jinoyat va inson huquqlari buzilishi holatlari mezbon davlat sudlari tomonidan ko'rib chiqilmasligi, xalqaro adolat va javobgarlik tamoyillariga putur

<sup>18</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145>



yetkazmoqda. BMT missiyalari doirasidagi zo‘ravonlik, ish haqi to‘lamaslik, majburiy mehnat va boshqa holatlar xalqaro hamjamiyatda bu institutni isloh qilish zarurati haqida jiddiy bahs-munozaralarni kuchaytirmoqda. Ayrim davlatlarda immunitetni faqat xizmat doirasiga cheklash amaliyoti joriy etilgan bo‘lib, bu yondashuv xalqaro huquqiy muvozanatning rivojlanayotgan shaklini ko‘rsatadi. Xalqaro jinoyatlar, inson huquqlari buzilishi va xizmat doirasidan tashqari faoliyat uchun differensial yondashuvni joriy etish, diplomatik maqom ortiga yashirinishni cheklovchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi global ehtiyoj sifatida qaralmoqda. Bu borada Xalqaro jinoiy sud amaliyoti, BMTning tavsiyaviy hujjatlari va milliy sud qarorlari asosida “imtiyoz emas, mas’uliyat” tamoyiliga asoslangan yondashuv kengaytirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, diplomatik immunitet xalqaro huquqning ajralmas instituti bo‘lib qolaveradi. Biroq zamonaviy global realiyaliklar fonida u doimiy yangilanib, javobgarlik, inson huquqlari va xalqaro jinoyat yurisdiksiyasi bilan uzviy bog‘lanib borishi shart. Faqat shu tarzda u xalqaro munosabatlar barqarorligini ta’minlashda adolatli va huquqiy mexanizm bo‘lib qolishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.. Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. – Toshkent: Adolat, 2007. – 185 b.
2. Yuldasheva G. Diplomatiya va konsullik huquq. Magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir: yu.f.d. Muhammadjonov O.Z.– T.: TDYI nashriyoti, 2009. 104 bet
3. H.R. 3841, 95th Cong., 1st Sess. (1977), reprinted in LEGISLATIVE HISTORY OF THE DIPLOMATIC RELATIONS ACT, supra note 2, at 661
4. The Growth of Purpose in the Law of Diplomatic Immunity, The American Journal of International Law, Vol. 53, No. 3, 1959
5. [https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9\\_1\\_1961.pdf](https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf)
6. <https://www.icj-cij.org/case/121>
7. Reforming the Laws and Practice of Diplomatic Immunity, Michigan Journal of Law Reform, 1982.
8. <https://lex.uz/docs/2647563>
9. Vena konvensiyasi diplomatik munosabatlar to‘g‘risida (1961-yil 18-aprel) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz. <https://lex.uz/docs/2647563>
10. Higgins, R. (1985). The Abuse of Diplomatic Privileges and Immunities: Recent United Kingdom Experience. The American Journal of International Law, 79(3), 641–651.

11. Toshpulatov, Sherzod, and Nigina Khudayberganova. “Diplomatic Immunity under International Law: Legal Regulation and Current Challenges.” Social Science Research Network, November 10, 2021. <https://ssrn.com/abstract=3950704>.
12. Repercussions of the Abuse of Diplomatic Immunity, SSRN, 2024.
13. <https://press.un.org/en/2023/gal3689.doc.htm>
14. The Measures against the International Criminal Court: USA v. ICC, Journal of International Law, 2019.
15. International Law. Diplomatic Immunity. American Courts Have Jurisdiction over Real Property Claims Incident to Divorce Proceedings. Fernandez v. Fernandez, 208 Conn. 329, 545 A. 2d 1036 (1988). (1989). Harvard Law Review, 102(6), 1403–1410
16. Arrest Warrant of 11 April 2000 (DRC v. Belgium), ICJ Reports 2002
17. Garnett, R. (2015). STATE AND DIPLOMATIC IMMUNITY AND EMPLOYMENT RIGHTS: EUROPEAN LAW TO THE RESCUE? The International and Comparative Law Quarterly, 64(4), 783–827.
18. <https://lex.uz/docs/-6445145>